

OLIY TA'LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



“Globallashuv jarayonida talabalar sporti va jismoniy tarbiya ta'limining dolzarb muammolari va yechimlari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari



**13-mart
Urganch-2024**

**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**



**“GLOBALLASHUV JARAYONIDA TALABALAR SPORTI VA
JISMONIY TARBIYA TA'LIMINING DOLZARB
MUAMMOLARI VA YECHIMLARI”**

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN

MATERIALLARI

Urganch-2024

BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARIDA REFLEKSIV POZITSIYANI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA TAJRIBA-SINOV ISHLARINI TASHKIL ETISH

**Jo‘rayev Sherali Maxmudovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Jismoniy madaniyat nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi**

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy pedagogik ta’lim sharoitida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida refleksiv pozitsiyani rivojlantirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlarini tashkil etish masalasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya o‘qituvchisi, refleksiv pozitsiyani rivojlantirish, tajriba-sinov ishlari, OTM, komponent.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan oliy ta’lim tizimini yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishga, respublikada amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi yangilanishlarda ushbu muassasalarning faol ishtirokini ta’minlashga to‘siq bo‘layotgan bir qator muammolar saqlanib qolmoqda [1].

Ta’lim va rivojlanishning samarali bo‘lishi uchun o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi jarayonida yuqori darajada tartiblilik hamda ularning maqsadga qaratilgan faoliyatga kirishish shartlari zarur. OTMdai bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy tashkil topishi va refleksiv pozitsiyasining rivojlanishi ularda shaxsiy-kasbiy sifatlar va kompetensiyalarning samarali rivojlanishini taqozo etadi [2].

OTMdai bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida refleksiv pozitsiyasi samarali rivojlanishining vazifalarini aniqlash imkonini berdi:

– (*ehtiyojlar-motivatsiyalarga oid komponenti doirasida*) kasbiy faoliyat, hayotga emotsiyonal-hissiy, manfaatlil munosabatni rivojlantirish;

– (refleksiv pozitsiyaning *kommunikativ-munosabatga oid komponenti doirasida*) shaxslararo munosabatlar uchun kommunikativ sifatlarni rivojlantirish; talabalar bilan muloqotda to‘g‘ri yondashuvni topish ko‘nikmasini rivojlantirish;

– o‘ziga va o‘z faoliyatiga nisbatan refleksivlik;

– (refleksiv pozitsiyaning *emotsional-faoliyatli komponenti doirasida*) turli usul va shakllar asosida talaba o‘z faoliyatini emotsiyonal jihatdan qayta anglashi qobiliyatini rivojlantirish, xususan, shaxsning dunyodan abstraksiyalangan holda e’tiborini o‘z fikrlariga jalb qilish, o‘zining kamchiliklari va afzalliklarini qayta ko‘rib chiqish, xulosalar, talqinlar, tushunchalar, farazlar ustida faol o‘ylash ko‘nikmasi;

– (refleksiv pozitsiyaning *ma’no yaratuvchi komponenti doirasida*) refleksiv tafakkur faoliyatining muhim qismi ekanligini tushunish qobiliyatini rivojlantirish, o‘z

fikrlari, amallari va harakatlariga e’tiborni jalb qilish, ularning bo’sh tomonlarini aniqlab, o‘z faoliyatini loyihalash va yaxshilash, muammoni professional darajada aniqlash va hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

– (refleksiv pozitsiyaning *kognitiv-tahliliy komponenti doirasida*) talabalarda o‘z tajribasini boshqalar tajribasi bilan solishtirish, olingan yechimlarni tanqidiy baholash qobiliyatini namoyon qilish, talaba tomonidan o‘z tajribasini qayta anglash, muammoni aks ettirish va qoidaga ko‘ra, o‘z faoliyati, muloqot, xulq-atvor, shaxsiy “Men”iga amaliy munosabatda bo‘lish, kamchilik va afzal tomonlarni ajratish qobiliyati, keyingi izlanish yo‘llarini aniqlash, ya’ni o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini takomillashtirish qibiliyatini namoyon qilish, o‘z ishida refleksiv vaziyatni aniqlash, shuningdek, refleksiyani yangi metodika, texnologiyalarni ishlab chiqishda qo‘llashni rivojlantirish;

– (refleksiv pozitsiyaning *kasbiy-tadqiqotchilik komponenti doirasida*) talabada refleksiv tafakkur tarzini, kasbiy yangiliklar va innovatsiyalarga intilishni, kasbiy faoliyatda refleksiv jarayonlar haqida tasavvurlarni rivojlantirish.

Tajriba sinov ishlari OTMlarda bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida refleksiv pozitsiyani rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi” fan dasturiga muvofiq amalga oshirilgan va 2020-yildan 2023-yilgacha bo‘lgan davrda tajribada tekshirilgan. Tajriba-sinov guruhini Chirchiq davlat pedagogika universiteti va Navoiy davlat pedagogika institutining “Jismoniy madaniyat” ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan 310 nafar talabasi hamda nazorat guruhini Toshkent davlat pedagogika universiteti hamda Qo‘qon davlat pedagogika institutining “Jismoniy madaniyat” ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan 300 nafar talabasi tashkil qilgan. Tajriba-sinov ishlari uchta o‘zaro aloqador bosqichda o‘tkazilgan, bular:

Birinchi bosqich – qayd etuvchi. Tajriba-sinov ishlarining birinchi bosqichida (2020-2021-y.y.) *tajriba-sinov guruhi* va *nazorat guruhi* respondentlari shakllantirilgan. Respondentlarda refleksiv pozitsiyasi rivojlanganlik darajasining boshlang‘ich tashxisi o‘tkazilgan va ularning shaxsiy o‘sishi monitoringi uchun zarur materiallar tayyorlangan.

Mazkur bosqichda talabalarga bo‘lajak pedagog refleksiv pozitsiyasining mohiyati, mazmuni va ahamiyati ochib berilgan. Bunda iroda, xarakter, o‘z-o‘zini bilish va boshqalarga nisbatan o‘zini o‘zi tarbiyalash metodikasi tushuntirib berilgan. Talabalar tomonidan o‘z kuchlarini samarali safarbar qilish va elektiv kurslar doirasida tashkil qilingan mashg‘ulotlarda qat’iyatlikni namoyish qilishlari maqsadida talabalar ustidan nazorat o‘rnatilgan va uning davomida OTM o‘qituvchilari talabalarga ular ustidan o‘rnatilgan nazoratining nimadan iboratligi tushuntirib berilgan. Pedagoglarning tekshiruv faoliyati talabalarda irodani ishga solish, refleksivlikni namoyon qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Birinchi bosqich natijalari talabalarining moslashish jarayoni kechayotgan davrda pedagoglar tomonidan talabalarni nazorat qilishi juda zarur ekanligidan dalolat bergen.

Ushbu bosqichda ilmiy-metodik baza, o‘qituvchilarning tayyorgarligidagi psixologik-pedagogik kamchiliklar, shuningdek, me’yoriy-huquqiy hujatlar tahlil qilingan; muammoni ajratib ko‘rsatish, ilmiy apparat va tadqiqot dasturini yaratish, tajriba-sinov tadqiqotining dasturini ishlab chiqish, farazni shakllantirish; tadqiqotning

nazariy asoslarini aniqlash; OTM sharoitida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida refleksiv pozitsiyani rivojlantirish modelini ishlab chiqish; OTM sharoitida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining refleksiv pozitsiyasi rivojlanganligining mezonlari, ko‘rsatkichlari va darajalari aniqlangan.

Tajriba-sinov ishlarining *shakllantiruvchi bosqichida* (2021-2022-y.y.) bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilari refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi” fan dasturi tatbiq etilgan, elektiv kurslar joriy qilingan, dasturiy-metodik majmualar sinovdan o‘tkazilgan, psixologik-pedagogik shart-sharoitlar, pedagog refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish psixologik-pedagogik texnologiyalari modellashtirilgan, olingan natijalarining aprobatsiyasi va korreksiysi, ularning muhokamasi o‘tkazilgan hamda OTMlari o‘quv jarayoniga joriy qilingan. Shuningdek OTMlarda bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilari refleksiv pozitsiyasini rivojlantirishning ishlab chiqilgan modelining samaradorligi tajriba-sinovda tekshirilgan.

Yakuniy bosqichda (2022-2023-y.y.) tadqiqotning nazariy va amaliy natijalari umumlashtirilgan va tizimlashtirilgan, empirik tadqiqotning natijalari umumlashtirilgan va tahlil qilingan, amaliy va nazariy natijalar aniqlangan, ular talqin qilingan, ularning keyinga qoldirilgan nazorati amalga oshirilgan, keyingi tadqiqotlar istiqbollari aniqlangan, dissertatsiya adabiy rasmiylashtirilgan.

Yuqoridagilar bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida o‘z kasbini professional nuqtai nazardan ko‘rishni rivojlantirish muammosining dolzarbligidan dalolat beradi. Kasbiy sifatlarning yo‘qligi yoki rivojlanmaganligi o‘qituvchilar uchun xos qadriyatlar tizimining rivojlanmaganligi bilan shartlab beriladi. Bu hol bo‘lajak mutaxassislar kasbiy faoliyatining boshlanishida qiyinchiliklar yuzaga kelishiga sababchi bo‘ladi. Ushbu muammoni hal qilish OTMlarda tarbiyaviy-ta’limiy muhitni savodli tashkillashtirilgan shart-sharoitlariga bog‘liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.
2. Вульфов Б.З. Педагогика рефлексии / Взгляд на профессиональную подготовку учителя. - М.: Магистр, 1999. - 112 с.